



Theoretical and practical justification for the possibilities of internal development of Uzbek language in the works of Fitrat

Gulom ABDULLAYEV¹

University of Science and Technologies

ARTICLE INFO

Article history:

Received March 2024
Received in revised form
10 April 2024
Accepted 25 April 2024
Available online
25 July 2024

Keywords:

language,
historical stage,
modern movement,
modern linguistics,
linguistics,
internal possibility,
language policy,
educational organization,
migration of meanings,
metaphor,
phrase.

ABSTRACT

The article describes Fitrat's merits in preserving, developing, and enriching the Uzbek language as a national language based on internal capabilities. Stating that each of the Turkic languages has its characteristics, Fitrat expressed opposing views on the generalization of languages and created the Chigatoy Gurungi organization aimed at preserving and developing the Uzbek language. Citing examples from Alisher Navoi's work "Mukhokamat ul-Lugatain", he put forward a policy of Turkization of native words at the expense of dialect units and word formation.

Fitrat justified the fact that the Uzbek language has wide possibilities with examples of his scientific works and articles. Skillfully using the semantic features of Turkish lexemes, he created unique examples of conveying meaning. The role of Fitrat in the development of the Uzbek language is based on the merits of Alisher Navoi.

2181-3663/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss3-pp30-36>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Fitrat ijodida o'zbek tili ichki taraqqiyot imkoniyatlarining nazariy va amaliy jihatdan asoslanishi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

til,
tarixiy bosqich,
jadidlar harakati,
tilshunoslik,
jadid tilshunosligi,
ichki imkoniyat,

Ushbu maqolada Fitratning o'zbek tilini millat tili sifatida saqlab qolish, rivojlantirish, ichki imkoniyatlar asosida boyitishdagi xizmatlari yoritilgan.

¹ Deputy Dean, Faculty of Pedagogy, University of Science and Technologies.

til siyosati,
ma'rifiy tashkilot,
ma'no ko'chimplari,
metafora,
ibora.

Теоретическое и практическое обоснование возможностей внутреннего развития узбекского языка в творчестве Фитрата

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

язык,
исторический этап,
джадидское движение,
Лингвистика,
джадидская лингвистика,
внутренняя возможность,
языковая политика,
образовательная
организация,
смысловые переходы,
метафора,
фраза.

В данной статье освещаются заслуги Фитрата в сохранении, развитии, обогащении узбекского языка как языка нации на основе внутренних возможностей.

KIRISH

XIX asr oxiri XX asr boshlarida o'zbek xalqi tarixida o'ziga xos tarixiy bosqich shakllandi. Bu davrning alohida belgilari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- jadidchilik harakati vakillari xalqni ma'rifatli qilish, ongini rivojlantirish, dunyoviy ilmlarni targ'ib qilish, millat tafakkurini o'stirish masalalarini ilgari surdilar;
- ma'rifatni targ'ib qilish barobarida ma'rifatga erishish yo'llarini ko'rsatdilar. Maktablar tashkil etdilar, darslik qo'llanmalar yaratdilar. Ko'rgazmalilikning ma'rifat ulashishdagi ta'sirini anglagan holda dramatik janrni shakllantirdilar;
- gazeta, jurnallar orqali ma'rifatga chorladilar, ma'rifatni, bilimni millatni zalolatdan qutultiruvchi asosiy vosita sifatida targ'ib qildilar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Bugungi kunda hech ikkilanmasdan hozirgi o'zbek adabiy tili fanini o'qitishda asosiy bosqichlardan biri sifatida jadid tilshunosligini kiritish va ommalashtirish mumkin. O'zbek tili taraqqiyotida jadid tilshunosligi davrini ajratishning o'ziga xos omillari bor.

1. Jadid adabiyoti vakillari tilning millat mavjudligini ko'rsatadigan asosiy belgi ekanligini chuqur anglagan edilar. Butun faoliyatlari davomida bu masalaga alohida e'tibor qaratdilar. "Hifzi lison" – til muhofazasi masalasini kun tartibiga olib chiqdilar.

2. O'zbek tili taraqqiyotining terminologiya, onomastika, dialektologiya masalalariga e'tibor qaratdilar, morfologiya va sintaksis muammolarini ilmiy asosda yoritdilar.

3. Eski turkiy til manbalarini o'rganishni targ'ib qildilar va buning natijasida bir qator turkiy so'zlarni ommalashtirdilar, o'z ijodlarida amalda qo'lladilar.

4. Eski turkiy til, eski o'zbek tili manbalarini o'rganish va ommalashtirish jarayonida lug'atlar tuzdilar. Mazkur lug'atlar bir qator turkiy so'zlarning XX asr boshlarida qayta tiklanishi, ommalashishi, keng yoyilishi, ayrim turkiy birliklarning umumiste'mol doirasida qo'llanishi uchun omil sifatida xizmat qiladi.

O'zbek madaniyati, adabiyoti, tilshunosligi, pedagogikasi taraqqiyotida jadidchilik harakati vakillarining alohida o'rni bor. O'zbek adabiyotida jadidchilik vakillari faoliyati va ijodi negizida jadid ma'rifati va jadid adabiyoti shakllandi. Shu o'rinda bu davrda jadid tilshunosligi yo'nalishi ham shakllanganini ta'kidlash joiz. Jadidchilik harakati vakillari tilni o'z qatlam so'zlari hisobiga boyitishni, tilni rivojlantirishda va targ'ib qilishda shevalar so'zlariga tayanish lozimligini uqtirib o'tdilar. Til masalalariga ham nazariy, ham amaliy jihatdan yondashdilar.

Jadid ma'rifatparvarlarining tilshunoslikka doir qarashlari tahlil qilingan. Jadidchilar tomonidan tuzilgan lug'atlar, imlo masalalari, darsliklar, bu davrga oid til masalalari, jadid ma'rifatparvarlarining tilshunoslikka doir qarashlari, o'zbek tilshunosligining jadidlar davrida alohida taraqqiyot bosqichiga ko'tarilgani qayd etilgan [Tog'ayev, 2001].

Fitrat jadid ma'rifatchiligining yetakchilaridan biri sifatida o'zbek tilshunosligi taraqqiyotida muhim o'rin tutgan. Buyuk mutafakkirning o'zbek tilshunosligi taraqqiyotidagi xizmatlari tadqiqotlarda yoritilgan. Fitratning o'zbek tili leksikologiyasi, morfologiyasi, sintaksisi, tarixiy leksikologiya taraqqiyotidagi xizmatlari nazariy jihatdan asoslab berilgan. [To'ychiboyev, 1992:1995]. Fitratning o'zbek tili badiiy imkoniyatlarini yoritishdagi faoliyati, asarlarining til xususiyati o'rganilgan [Sayidov, 2001:5]. Fitratning til masalalariga alohida e'tibor qaratgani, darslik, qo'llanmalar yozgani, "Chig'atoy gurungi" nomli maxsus guruh tashkil qilgani, tilni millatning or-nomusi, sharafi sifatida himoya qilgani, uni asrab-avaylashga, taraqqiy qildirishga diqqat qaratgani, ona tilini chet so'zlar hisobiga emas, o'z ichki imkoniyatlari hisobiga boyitish g'oyasini ilgari surgani dalillar asosida ko'rsatib berilgan [Qosimov, 2002:356-357]. Fitrat yashagan davr ijtimoiy-madaniy muhiti, til masalalari, o'zbek alifbosi va imlo masalalari bir qator tadqiqotlarda yoritilgan [Nurmonov, 2002; Bobomurodova, 2002].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Jadid ma'rifatparvarlarining asarlari adabiyotshunoslik va tilshunoslik nuqtai nazaridan o'rganilgan. Tadqiqotlarda turkiyalik, germaniyalik olimlarning izlanishlari qayd etilgan. Jadidchilik harakatining o'zbek xalqi madaniy hayotida muhim hodisa bo'lgani, o'zbek tili va o'zbek tilshunosligi taraqqiyotidagi alohida bosqich hisoblanishi ta'kidlangan. Maqolada shu davr adabiy muhiti, til xususiyatlariga bag'ishlangan ilmiy-metodologik manbalardan foydalanildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan e'lon qilingan o'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini oshirishga qaratilgan farmonlar, ajdodlar merosini o'rganish va keng targ'ib qilishga bag'ishlangan metodologik manbalar, ilmiy adabiyotlardagi ilmiy-nazariy yondashuv va tahlil usullari tadqiqot metodologiyasini tashkil etadi.

Jadid ma'rifatchiligi davriga oid ilmiy adabiyotlardagi nazariy xulosalar, Fitratning tilshunoslikka oid qarashlari tahlil etilgan o'rinlar, ona tilini muhofaza qilish, ichki imkoniyatlar asosida boyitish haqidagi g'oyaviy yo'nalish tadqiqot metodologiyasiga asos qilib olingan.

Maqolada qiyosiy, qiyosiy-tarixiy, tavsiflash, komponent tahlil metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Fitrat tilga oid ilmiy va ijodiy faoliyatida o'zbek tilining kelajagini o'z davri muhiti nuqtai nazaridan yorqin tasavvur qilgani holda, turkiy tillarni umumlashtirish, birlashtirish haqidagi qarashlarga zid o'laroq, millatning muhim belgisi sifatida har bir tilni asrash va taraqqiy toptirishning zarurat ekanligini asosladi: "...jonkuyar tilshunos sifatida XX asrning 20-yillari til siyosati qozonida qaynadi va turkiy tillarni birlashtirish siyosatining oqibatlarini sezgani holda har qaysi turkiy tilning umumiy jihatlari bo'lishi bilan birga xususiy, o'ziga xos jihatlari ko'pligi, shuning uchun har qaysi turkiy til mustaqil ravishda rivojlanishi va o'z xalqiga xizmat qilishi lozimligini angladi" [Nurmonov, 2002:139].

Tillarni birlashtirish masalasining ijtimoiy-siyosiy tus olishi milliy til muhofazasining xalq taqdiri, kelajagi uchun alohida qiymatga ega bo'lishi Fitrat boshchiligidagi tilparvarlarning amaliy faoliyat yo'nalishlarini belgilab berdi. Milliy tilni asrash, rivojlantirishga xizmat qiladigan, bu yo'nalishdagi muammolarni yechishga qaratilgan ijtimoiy tashkilot tuzildi. Fitrat "Chig'atoy gurungi" maqolasida shunday deydi: "Turkiy tillarni, turk adabiyotini birlashtirish shiori ostida ish ko'rildi. Maktablarda usmonli tili, usmonli adabiyoti ona tili darslari o'rnida qabul qilindi. Mana shu harakatga qarshi "Chig'atoy gurungi" tashkil etildi" [Fitrat, 2000:17].

"...Avvalo, jadidlar xalqimizning ma'naviy merosi bo'lgan til masalasiga e'tibor berdilar...So'l oqim tarafdorlari "chig'atoy" gurungi nomi ostidagi to'garakka birlashdilar. Gurung qatnashchilari o'zbek adabiy tilini me'yoridan ortib ketgan arab va fors so'zlaridan tozalashni o'z oldilariga bosh vazifa qilib qo'ydilar" [Nurmonov, 2002:119]. Bu ma'rifiy tashkilot o'zbek tili taraqqiyotida muhim ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga kasb etadi.

XX asr boshlarida tilni chet so'zlardan tozalash masalasi kun tartibiga qo'yilgani, o'z qatlam so'zlarini keng yoyish g'oyasi milliy til taraqqiyoti uchun nihoyatda zarur yondashuvlardan biri hisoblanadi. XX asrning ikkinchi yarmida dunyo tajribasida ona tilini chet so'zlardan tozalash masalasi Koreya, Xitoy kabi rivojlangan davlatlar siyosatining ajralmas qismiga aylangani Fitrat yetakchiligidagi til siyosatining to'g'riligini tasdiqlaydigan dalillardan biridir.

Fitrat ham ilmiy, ham ijodiy faoliyatida o'zbek tilining mavqeyini ko'tarishga, badiiy jozibadorligini ko'rsatishga intildi. Tilshunoslikka doir talqinlarida bir necha tillarni, avvalo, o'z ona tilini mukammal bilgan til jonkuyari sifatida namoyon bo'ldi. "Fitrat arab, fors, rus, turk tillarini mukammal bilgani holda, o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga, o'zbek tilining turkiy tillar tizimidagi o'rnini va bundan keyingi istiqbolini belgilab berishga harakat qildi" [Nurmonov, 2002:138].

Fitrat turkiy tilni *eng boy* va *eng baxtsiz* til sifatida ta'riflagan: "*Dunyoning eng boy, eng baxtsiz bir tili qaysi tildir? Bilasizmi? Turkcha. ...Dunyoning eng boy tili turkchadir, eng baxtsiz tili xud turkchadir*" deb yozgan edi [Fitrat, IV, 2000:124]. Olim o'zbek tili tarixiy taraqqiyoti, nomlanish tarixini e'tiborga olib, bu tilni "turkcha" deb nomlaydi. Tilning boyligi qaysi jihatlari bilan ifodalanishi, xususan, so'zlarining ko'pligi, so'z yasash ko'rinishlarining turliligi, qoidasining mukammalligi bilan izohlaydi. "Bir tilning boylig'i u tildag'i so'zning ko'bligi (kasrati kalimat), undirik kengligi (vus'ati ishtiyoq), yusup tugalligi (mukammalliyati qavoyid) bilan bo'lur" [Fitrat, IV, 2000:124].

Fitrat turkiy tilning boyligini Alisher Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida asoslagani, misollar orqali ko'rsatib berganini qayd etadi: "*Bu so'z bukun emas, necha yuz yil burun orag'a chiqmish deya Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" kitobidan o'z*

javobini olmish. Navoyining kitobi turkchani boylig'ini ochibg'ina bildira olmasa ham, turkchada so'z ko'bligini u yaxshi bildiradi. Navoiy yolg'iz "yig'lamoq"ning turlarini ko'rsatgan turkcha so'zlarning shunchasini yozadi: ingramak, singramak, ingichkirmak, yig'lamoq, yig'lamsnmoq, o'kurmak, siqtamoq... mana sizga bir hodisaning yetti turi uchun otkim, oralarida ingizka ayirmalar bordir" [Fitrat, IV, 2000:124].

Fitrat tushunchalarni nomlashda turkiy muqobillarini topish, shuning barobarida ichki imkoniyatlar asosida so'z yasash haqidagi takliflarini o'rtaga tashladi. Turkiy tillarda muqobili bo'lmagan forsha-tojikcha, arabcha so'zlarni aynan qo'llashni ma'qulladi. Lekin mumkin qadar tilning ichki imkoniyatlaridan foydalanish, yangi so'z yasash o'zbek tilini ichki imkoniyatlar asosida boyitishda muhimligini ta'kidladi. *"Hozirgi so'zlarimizdagi arabcha, forshalardan bir nechasi uchun turkcha topilmaydir, desangiz to'g'ridir. Biz ham ularni chiqarmoqchi emasmiz. Ularni olurmiz, lekin o'zimizniki qilurmiz. Turkchalashtiramiz. "Qoida"ning turkchasi yo'qdir. "Sarf"ning-da turkchasini topolmadik. Ikkisin daxi olurmiz. Lekin siz kabi "qavoidi sarfiya" demasdan, "sarf qoidalari" dermiz"* [Fitrat, 1996:240]. Fitrat turkchalashtirish, o'zbekchalashtirish siyosatini ilgari surgan ilg'or fikrli ziyoli sifatida o'z davridagi tilshunoslar hamda ziyolilar qatlamiga ta'sir o'tkaza oldi.

Fitrat keng ma'no mundarijasiga ega turkiy so'zlar ko'p ekanligini qayd etgan: *...turkchada bu hol oz emas. Arabcha nufuz, murur, ubur; u to'g'rusinda o'tmoq, kechmoq, omoq, ortmoq bor. Arabcha kand, azm, amal qarshusinda turkcha tilak, istov, o'rxan bor. Arabcha zarfyoninda turkcha idish bor, sovut bor. Arabcha kaf, manfaat o'rninda turkcha tosix bor, unum bor. Arabcha qalb o'trusinda turkcha yurak bilan ko'ngul bor. Arabcha sadr, turkcha ko'ks va ko'krak bor* [Fitrat, IV, 2000:124].

Fitrat turkiy tilda bitilgan "Qutadg'u bilig", "Devonu lug'otit turk" kabi nodir namunalarni o'rgandi, ommalashtirdi, targ'ib qildi. Turkiy tilning keng imkoniyatlari aks etgan va olam manzarasi til tasvirlari orqali yorqin aks ettirilgan bu asarlar bugungi kunda dunyo ilm ahli tomonidan keng miqyosda o'rganilmoqda. Ilm ahli ularda aks etgan hayot haqiqatlaridan, turmush tarzi haqidagi xulosalardan bahramand bo'lmoqdalar.

Turkiy tilning keng imkoniyatlarini nazariy jihatdan asoslashga harakat qilgan Fitrat uning jozibadorligini, ta'sirchanligini, keng semantik imkoniyatlarga ega ekanligini amalda namoyon qildi: o'z ijodida turkiy tilning beqiyos tasviriy imkoniyatlari, ma'no xususiyatlaridan foydalandi. Turkiy tilning ma'lumot berish, ta'sirchanlikni ta'minlash va badiiy imkoniyatlari Fitratning ilmiy asarlarida, ilmiy va ilmiy ommabop maqolalarida, hikoyalarida, dramalarida, she'riyatida o'z aksini topgan.

Fitrat she'riyatida turkiy so'zlar keng badiiy bo'yoqdorligi bilan namoyon bo'lgan. Fitrat, avvalo, badiiy uslubdagi muhim ifoda usullaridan bo'lgan jonlantirish san'atidan foydalanib, yurtga shaxs sifatida murojaat qilgan hamda tashxisning go'zal namunasini yaratgan:

Turon, yigiting, barchaga boq, qalqdi oyoqq'a

Yurtda qorovul qo'yg'ali arslonmi kerakdir? [Fitrat, I, 2000:31].

Bu yondashuv ta'sirchanlikni oshirishga xizmat qilgan.

Fitrat turkiy iboralardan mahorat bilan foydalangan. Yuqorida keltirilgan misralardagi *oyoqqa qalqmoq* iborasidagi *qalqimoq* quyidagi ma'nolarda ishlatiladi: 1. Suyuqlikning betida chayqalmoq, tebranmoq. 2. Yuzada, biror narsa ustida lapanglamoq; u yon-bu yon chayqalmoq, silkinmoq. 3. Ixtiyorsiz, qandaydir ta'sir bilan biror tomonga siltanmoq. 4. Ko'chma ma'noda: notinch holatda, harakatda bo'lmoq.

5. Biror narsa ostidan, ortidan, tubidan sirtga (yuqoriga) chiqmoq. 6. O'tirgan, yotgan joydan o'rnidan turmoq, qo'pmoq. 7. Paydo bo'lmoq, chiqmoq, toshmoq. 8. Ko'chma ma'noda: namoyon bo'lmoq, aks etmoq. 9. Ko'chma ma'noda: ikkilanmoq. 10. O'qchimoq. So'z *qalqmoq* shaklida ham ishlatiladi (O'TIL, V, 232). *Oyoqqa qalqimoq* "o'tirgan joyidan tiklanmoq, tik turmoq" ma'nolarini anglatadi; *yuragi qalqimoq* qalbida kuchli noxush hissezgi qo'zg'almoq (O'TIL, V, 232).

Oyoqqa qalqmoq iborasi hozirda *oyoqqa turmoq* shaklida qo'llanadi. *Oyoqqa turmoq* "o'rnidan turmoq" ma'nosida; "bosh ko'tarmoq, qo'zg'almoq, qarshi chiqmoq, oyoqlanmoq"; "kasaldan sog'ayib, yurib ketmoq; "yo'lga, izga tushmoq, yaxshilanmoq" kabi ko'chma ma'nolarda qo'llanadi (O'TIL, III, 90). *Oyoqqa qalqmoq* "qiyinchilik, mashaqqat, xavotir bilan turmoq" ma'nolaridagi tushunchalarni aks ettiradi.

"Himoya qilmoq" tushunchasi *qanotlari ostiga olmoq* iborasi yordamida aks ettirilgan: "*Dunyo xalqi bo'ysundirmagan saltanatlarining nechun buzildi? Insonlik olamini qanotlari ositinda olgan hoqonlig'ning nechun kuchi o'ldi? Kuchingmi ketdi? Kimsasizmi qoldi? Yo'q...yo'q...Tangri haqqi uchun yo'q! Sen kuchsiz emassan, sen kimsasiz emassan*" [Fitrat, I, 2000:32].

Fitrat turkiy leksemalar orqali metaforaning yorqin namunalarini yaratgan:

Ey hoqonlar o'chog'i! Ey qahramonlar tug'oyi! Qani u chaqmoq chaqishli botir qahramonlaring? Qani avvalgi o'q yurishli, otli beklaring? Nechun "urho"laring eshitilmaydi? [Fitrat, I, 2000:31].

"Shiddatli", "shijoatli" ma'nolari *chaqmoq chaqishli*, "tik, adil yurish" ma'nolari *o'q yurishli* ko'chimlari orqali ifodalangan.

Eski so'zi quyidagi ma'nolarni anglatadi: 1. Yangilik sifati ketgan, yaroqlilik bo'yog'ini ma'lum darajada yo'qotgan. 2. Ko'xna, ko'p vaqtlardan beri ma'lum bo'lgan, ko'p vaqtdan beri turgan (yangisiga nisbatan). 3. O'tgan vaqtga oid, avvaldan ma'lum; o'tgan. 4. Avval ham bo'lgan, eskidan ma'lum. 5. Eski usuldagi; eskicha. 6. Bundan (hozirgidan) oldingi; avvalgi, sobiq. 7. Iste'moldan chiqqan, eskirgan yoki bekor qilingan. 8. Ko'pni ko'rgan, hayot tajribalariga ega bo'lgan, ko'pdan ma'lum (O'TIL, V, 55).

Eski so'zining semantik xususiyatlari metafora ko'rinishlari uchun asos bo'lgan: "*Qayg'urma! Eski davlating, eski saltanating, eski yigitlaring, eski arslonlaring hammasi bor, hech biri yo'qolmishdir. Yolg'iz... Oh yolg'iz tarqalmishdir*" [Fitrat, I, 2000:32].

Eski davlat, eski saltanat birikuvlari hozirgi uslub talabiga mos keladi. *Eski yigit, arslon* birikuvlari hozirgi o'zbek adabiy tili uchun me'yor hisoblanmaydi. Bu esa *eski* so'zining ma'no ko'lamini hozirga kelib torayganligini ko'rsatadi.

Fitrat "vatan" tushunchasini *o'choq* timsoli orqali gavdalantirgan: "*Yovlaring seni shu kungami soldilar?*

Tilagim, istagim, saodatim!

Bolalaring seni shu holdami qo'ydilar?

Suyunchim, ovunchog'im, o'chog'im! [Fitrat, I, 2000:33].

Ayol qiyofasida ham tasvirlagan: "*Ey mungli xotun, sen kimsan?*

Eyg'amli ona, nechuk mundan ayrilmaysan? Yonimda, ko'zimda, miyamda, yuragimda nima axtarasan, nechuk ketmaysan? Qayg'u tutunlari ichra yog'dusi qolgan ko'zlaring, u yosh yomg'irlarin nechun to'kadir? Zulm zanjirlari bilan bog'langan qo'llaring nechun haryonga uzatiladir, nima tilaysan? Oh... Bildim... bildim... Angladim! Sen mening Vatanimsan, vatanimning mungli xayolisan!" [Fitrat, I, 2000:32].

Miyada, yurakda axtarmoq birikmalari, zulm zanjiri, mungli xayol birikuvlari asosida metafora hosil qilingan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Alisher Navoiy XV asrning ikkinchi yarmida turkiy tilning keng imkoniyatlarga ega ekanligini nazariy jihatdan asoslab, amaliy jihatdan isbotlab bergan bo'lsa, Abdurauf Fitrat bevosita Navoiyga ergashib, uning fikr-mulohazalari, nazariy ma'lumotlaridan tayangan holda XX asr boshlarida turkchanning keng imkoniyatlarini nazariy va amaliy jihatdan isbotlab, asarlari misolida ko'rsatib berdi. Bu jihatdan Fitrat o'zbek tilshunosligini alohida taraqqiyot bosqichiga olib chiqdi. Turkiy so'zlarning saqlanib qolishi, keng yoyilishiga o'z hissasini qo'shdi. Ichki imkoniyatlar sifatida sheva so'zlarining qo'llanishi hamda so'z yasash tizimi mahsuldorligini oshirishda o'z o'rniga ega bo'ldi. Til masalalarini siyosat darajasiga ko'tarib, til muhofazasini ham jamoat arbobi, ham ziyoli, ham olim va eng muhimi, shu til sohibi sifatida fidoyilarcha targ'ib qildi.

TAVSIYALAR

1. O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini oshirish dolzarblik kasb etgan bugungi kunda ona tilini ichki imkoniyatlar asosida boyitish g'oyasi muhim qiymatga ega. Ayrim sheva so'zlarini, adabiy tilda muqobili bo'lmagan leksik birliklarni ommalashtirish, chetdan kirib kelayotgan so'zlarning turkiy muqobilini topish, o'zbek tilining ichki imkoniyatlari orqali yangi so'z yasash amaliyotini qo'llash lozim.

2. Fitratning davr tilini mumtoz asarlar tili bilan muvofiqlashtirishga qaratilgan sa'y-harakatini bugungi kunga tatbiq etish, mumtoz manbalar tiliga bag'ishlangan izohli lug'atlarni nashr etish va ommalashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдурауф Фитрат. Чин севиш. –Тошкент, 1996.
2. Абдурауф Фитрат. Чиғатой гурунги. Танланган асарлар. I. –Тошкент: Маънавият, 2000.
3. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. I. –Тошкент: Маънавият, 2000.
4. Бобомуродова Ш. Ўзбек тилшунослиги ривожига Элбекнинг роли. Филол. фан. номз... дисс. –Тошкент, 2002.
5. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. –Тошкент: Ўзбекистон, 2002.
6. Сайидов Ё. Фитрат бадий асарлари лексикаси. Филол. фан. номз....дисс. – Тошкент, 2001.
7. Тўйчибоев Б. Фитрат ва ҳозирги ўзбек адабий тили // анжуман материаллари. –Бухоро, 1992.
8. Тўйчибоев Б. Фитрат – тилшунос. –Тошкент, 1995.
9. Тоғаев Т. Ашурали Зоҳирий ва унинг тилшунослик мероси. –Тошкент, 2021.
10. O'TIL – Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006. I –680 б.; IV – Тошкент, 2008. -608 б.
11. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик.-Тошкент: Маънавия, 2002.-356-357/.